

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi¹

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti¹,

Saida Yuldasheva Tashkulovna²

Samarqand davlat chet tillar instituti v.b.professori (PhD)²

E-mail: aoynisaa@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etish, zamonaviy shakllarda topshiriqlarni yaratish va uni nazorat qilish hamda optimal shaklda baholash bugungi ta'lim jarayonidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu maqolada mustaqil ta'lim haqida ma'lumot berildi. Bundan tashqari, Oliy ta'lim muassasi talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishning zamonaviy shakllari ishlab chiqildi va uni qo'llash afzalliklari ko'rsatildi. Shu bilan birgalikda, optimal mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim jihatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari, loyiha asosida o'qitish, muammoli o'qitish, axborot texnologiyalari.

MODERN FORMS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. As is known, the correct organization of independent education of students in higher education institutions, the creation of tasks in modern forms, their control and optimal assessment are one of the urgent problems in today's educational process. Therefore, this article provides information about independent education. In addition, modern forms of organizing independent education of students of higher education institutions were developed and the advantages of their use were shown. At the same time, important aspects of organizing optimal independent education were studied.

Keywords: Independent education, modern forms of independent education, project-based learning, problem-based learning, information technologies.

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМООБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. Как известно, правильная организация самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях, создание заданий в современной форме, их контроль и оптимальная оценка являются одной из актуальных проблем современного образовательного процесса. Поэтому в данной статье представлена информация о самостоятельном обучении. Кроме того, разработаны современные формы организации самостоятельного обучения студентов высших учебных заведений и показаны преимущества их использования. При этом изучены важные аспекты организации оптимального самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, современные формы самостоятельного обучения, проектное обучение, проблемно-ориентированное обучение, информационные технологии.

Kirish. Bugungi kunga kelib ta'lim davlatning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligi anglandi. Zamonaviy jamiyat bilimga asoslandi va bu o'z navbatida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi, milliy ta'lim tizimini takomillashtirishga, uni rivojlantirishga yetarlicha ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Shuningdek, ushbu muammolardan biri Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etishdir. Bu to'g'risida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo zamonaviy ta'limda moodle platformasi ishga tushgandan keyin mustaqil ta'limni qanday shakllarda joylash, boshqarish va qanday baholash bugungi kun muammosiga aylandi.

Har qanday sohada mustaqil bilim olishga intilish ta'lim olish jarayonining o'ziga xos xususiyati va bilim olish asosidir. Ta'lim tizimida bilimlarni mustaqil egallash va nazorat qilish mustaqil ta'limning muhim omillaridan biridir. Mustaqil ta'lim olish jarayonida o'quvchilarda eng avvalo mustaqil ishlash, erkin, ijodiy yondashish va eng muhimi, mustaqil fikrlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish zarur. Bularni talabalarda shakllantirish orqali biz kelajagimiz ustuni bo'lgan yetuk, malakali, har tomonlama bilimdon kadrlarni tayyorlay olamiz[1, 261].

Metadologiya. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratish, o'quv faoliyatida mustaqillikni shakllantirish, krativlikni shakllantirish bilan birgalikda ongli tushunish va mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi[2, 27]. Bularning barchasini talabalarda shakllantirish uchun mustaqil ta'lim to'g'ri va bugungi davr sharoitiga mos ravishda tashkil qilinishi zarurdir.

Ta'lim tizimi rivojlangan xorij mamlakatlaridan andoza olgan holda milliy ta'lim tizimini yaratish jarayonida Oliy ta'lim muassasi talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishning samarali optimal shakllari:

1. Maxsus ishlab chiqilgan, jumladan tushuntirishlar, ko'rsatmalar, tekshirish kalitlari, o'quv mashqlari asosida mustaqil ishlarni tashkil etish. Xususan, bu shakldagi mustaqil ishlarda mavzuni berilgan metodlar, topshiriqlar orqali ijodiy bajarish yoki konspektlashtirish, refarat tayyorlash, mustaqil ta'lim mavzusi yuzasidan tanqidiy fikrlashga doir testlarni yechish singari vazifalar beriladi. Misol uchun: **Fikr:** "Mustaqil ta'lim talabalar bilimini boyitishning eng maqbul yo'lidir. ".

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

F	• Fikringizni bayon eting
S	• Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• Fikringizni umumlashtiring

Topshiriq: “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mustaqil ta’lim” mavzusidagi konseptual jadvalni to’ldiring.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mustaqil ta’lim	Ta’lim tizimi		
	Maktabgacha ta’lim	O’rta maxsu ta’lim	Oliy ta’lim
AQSH			
Germaniya			
Finlandiya			
Yaponiya			

Bu kabi ijod qilishga undaydigan topshiriqlar talabalarning ijodkor bo’lishiga, olgan bilimlarining kerakli ekanligini anglashga va o’z fikrlarini isbotlab bera olishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, talabalarning mustaqil ishlarida testlardan foydalanish ta’limdan ko’zlangan maqsadga erishish uchun juda samaralidir. Bunda talaba uni yechish orqali o’z bilimini tekshiradi. O’z ustida ishlashga harakat qiladi va o’z o’zini kasbiy faoliyatda shakllantirishni boshlaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, o’qitish va o’qitishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari o’quv jarayoniga tobora ko’proq kirib bormoqda, bu talabaga ma’lum bir fanni mustaqil o’rganish imkonini beradi va shu bilan birga materialni o’zlashtirish darajasini nazorat qiladi[3, 167].

2. Mustaqil ta’lim mavzusini o’rganishning tayyorgarlik bosqichini aloqador qo’shimcha materiallar, rasmlar, maqolalar, internet manbalari va haqiqatlarni mustaqil ravishda izlash asosida tashkil etish. Bu shakldagi topshiriqlarga misol qilib “Mening yurtim” kommunikativ mavzusida ishlash tajribasini keltirishimiz mumkin. Bunda talabalarga bajarish bo’yicha asosiy matn beriladi va topshiriqni juftlik tarzida bajarish vazifasi yuklatiladi. Talabalarga uni o’rganib chiqish, har biri shaxsiy taasurotlarini, shahardagi sevimli joylarini bayon qilish, tug’ilgan shaharlari haqida qiziqarli faktlarni izlanib o’rganish va ingliz tilida audioli podkast tayyorlash topshirig’i beriladi. Bu vazifa orqali talabaning kommunikativ qobiliyati, mustaqil izlanuvchanlik va o’z bilimlarini takomillashtirish ko’nikmalari rivojlanib boradi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalar orqali mustaqil ishlarning kengaytirilgan shaklini tashkil etish. Bu vazifa quyidagi shaklda tashkil etilishi mumkin ya’ni bir necha manbalardan foydalanib ma’ruza tayyorlash.

Savol	Darslik	Maqolalar va tezislar	Internet ma’lumotlari	Intervyu
Mustaqil ta’limning zamonaviy shakllari				

Bundan tashqari, mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash, glassariy va test tuzish ham ushbu shaklga kiradi. Bularni bajarishda har bir talaba topshiriqda berilgan mavzuni darslikdan o’rganadi, internetdan shunga aloqador maqola va tezislar to’playdi, internet ma’lumotlarini va audio, videolarni tinglash orqali manbalarni

o'rganadi va topshiriq mavzusi yuzasidan yetarlicha bilim va malakaga ega bo'ladi. Taqdimot tayyorlashda nafaqat berilgan mavzuni balki axborot texnologiyalari bilan ishlashni o'rganadi. Bundan tashqari, mavzu yuzasidan yetarlicha izlanadi va yakunida uni mustahkamlovchi test, glossary tuzadi.

4. Tadqiqot mustaqil ishini tashkil etish. Bunda talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi va o'zlarini erkin ijod qilishga undaydi. Ya'ni berilgan mavzu yoki yoqtirgan mavzuingiz yuzasidan esse yozing, maqola yoki tezis tayyorlang, og'zaki taqdimot qiling(audio orqali) singari shakldagi ishlar kiradi. Bu turdagi mustaqil ishlar asosan 2, 3, 4-kursdagi talabalar uchun mos bo'ladi. Chunki, topshiriqni bajarish yetarlicha aqliy bilim va izlanish talab qiladi. Berilgan topshiriq talabalarning kreativ ruhda fikrlashiga, ta'lim sohasida kuzatilayotgan muammolarni o'rganishga va yechish uchun o'z hissasini qo'shishga, axborotlar bilan ishlashga, ularni analiz, sintez qilishga, yangi bilimlarni egallashga yordam beradi.

Talabalar uchun murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammolarni hal qilish uchun kollektiv aqliy faoliyat usullarini qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu usullardan foydalanish ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, intellektual rivojlanish darajasini oshirishga, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga va ularning mustaqilligini, hamkorligini oshirishga yordam beradi. Kollektiv aqliy faoliyat usullari boshqa usullardan yangiligi, muammoni hal qilishda kompleks yondashuv, muammoni hal qilish yo'nalishlarini tanlashda ancha harakatchanligi va barcha ishtirokchilarning faol ijodkorligi bilan ajralib turadi.[4, 16]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu keltirilgan mustaqil ta'limning zamonaviy shakllaridan foydalanib tashkil qilinishi - ta'lim jarayonida talabalar olgan bilimlarini mustahkamlashga, yangi yangi bilimlarni egallashga, ta'lim komponentlarini o'rganishga, ijodiy, tanqidiy, optimal fikrlashga, pedagogik mahoratini oshirishga, nafaqat kelajak kasbidagi pedagogik faoliyatda uchraydigan muammolarni balki hayotiy muammolarni ham ijodiy yechishga, optimal yechimini tanlashga, zamon talablariga mos o'qituvchi bo'lishga, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, mustaqil ta'limning ushbu shakli moodle platformasiga joylay olishga, topshirishga va baholashga mos ravishda tuzilgan. Ishoniladiki ushbu tavsiya va takliflar ta'lim jarayonida o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rashidova O. "The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270.

2. Begmatova D.M., Rashidova O.X. "Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach", « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal, 2024, 25-31, DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051>

3. Крапивина Марина Юрьевна, “САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА”, Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2022. Т. 28, № 3. С. 165-169. ISSN 2073-1426

4. Боровинская Д.Н, Суровцев В.А Креативность и мышление: категориальная характеристика // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология – Томск, 2019. - №47. – Сю 15-24.